UO‘K 82.0

A.SA’DIY DARSLIGINING TARKIBI, ILMIY YO‘NALISHI VA ASOSIY MUAMMOLARI

N.A. Mo‘minova

Maqolada Abdurahmon Sa’diyning “Amaliy hamda nazariy adabiyot darslari” darsligining tarkibi, ilmiy yo‘nalishi o‘rganilgan, uning o‘zbek adabiyotshunosligida adabiyot nazariyasi sohasining shakllanishidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, darslik Abdurauf Fitratning 1926-yilda yaratilgan “Adabiyot qoidalari” asari bilan qiyoslab tahlil qilingan. Mazkur darslik milliy adabiyotshunoslikning dastlabki nazariy manbalaridan biri ekani asoslangan.

Kalit so‘zlar: *kishilik ijodi, ravishlar-suratlar, sochma, tizma, bitim (qofiya), omma adabiyoti, chinlik oqimi (realizm).*

В статье речь идёт о месте литературоведения историй её созданиий о проводымых научных исследования его составе, направлениях как методички по работе А.Саъдий “Уроки критики и теории литературы”, также данная статья сопоставлена соотносительно типологическом методом в 1926 с произведением Абдурауфа Фитрата “Правила литературы”. Также утверждается, что учебник является одним из основных теоретических источников национального литературоведения.

Ключевые слова: *человеческое творчество, образы и способы выражения, проза, поэзия, рифма, массовая литература, реализм.*

KIRISH

XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligida adabiyot nazariyasining shakllanish davri alohida adabiy-ilmiy bosqich sifatida qaraladi. Buning boisi shundaki, bu davrda mumtoz adabiyotga oid nazariy muammolar izchil va keng ishlanishi bilan birga adabiyot nazariyasini Yevropa tipidagi andozalarga solish jarayoni boshlangan edi. O‘zbek adabiyotshunosligida adabiyot nazariyasi mustaqil soha sifatida shakllanishida asr boshlaridagi nazariyotchilar – Abdurauf Fitrat, Abdurahmon Sa’diy, Vadud Mahmud va boshqa olimlarning maqola va darsliklari ma’lum ahamiyatga ega. Ularni o‘rganishda o‘zbek olimlari salmoqli tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Bular I.Sultonov, H.Yoqubov, N.Karimov, B.Nazarov, B.Qosimov, B.Sarimsoqov, N.Xudoyberganov, A.Rasulov, B.Do‘stqorayev, H.Boltaboyev, B.Karimov, O.Hamroyeva kabilarning darslik va qo‘llanmalari, tadqiqot va maqolalaridir. Ular orasida akademik I.Sultonovning “Adabiyot nazariyasi”(1980) alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda Fitrat va A.Sa’diyning nazariy darsliklari orqali bayon qilingan masalalar davom ettirilib, dastlab 1939-yilda yangi tipdagi nazariya yaratilgan bo‘lsa, u keyinroq mazkur olim tomonidan maromiga yetkazilib, 1986-yilda nashr etilgan [1, 2]. Ushbu asar akademik N.Karimov tomonidan qayta ishlanib, 2004-yilda lotin yozuvida nashr etilgan. N.Karimovning jadid adiblarining ijodiy merosiga bag‘ishlangan bir qator ishlarida, jumladan, “Adabiyot va tarixiy jarayon” kitobida Fitrat va uning zamondoshlari tomonidan yaratilgan ishlar tahlil qilingan [4]. Akademik B.Nazarovning bir qator ishlari o‘zbek tanqidchiligi tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda A.Sa’diyning birgina darsligi emas, balki ayrim maqolalari ham (masalan, “Simvolizm to‘g‘risida”) tahlil qilingan, zamon va realizm talablaridan kelib chiqib baholangan [5, 6]. B.Qosimov jadidshunos olim sifatida uzoq yillar davomida milliy uyg‘onish davri adabiyoti masalalari bilan shug‘ullangan. Olim rahbarligida e’lon qilingan bir qator maqolalar va kitoblarda davr adabiyotshunosligi masalalari qatorida “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari”ga munosabat bildirilgan [7]. Professorlar N.Xudoyberganov va A.Rasulovning o‘zbek tanqidchiligi tarixiga bag‘ishlangan darsligida A.Sa’diyning ayrim ishlariga, jumladan, ushbu darslikka ham munosabat bildirilgan [8]. B.Do‘stqorayevning “O‘zbek sovet tanqidchiligi tarixi” kitobida va “Adabiyot nazariyasiga oid ilk nazariy

darsliklar” maqolasida A.Sa’diyning adabiy-tanqidiy ishlari, jumladan, mazkur nazariy darslik haqida sho‘ro davrida ilk bora jiddiy taqriz berilgan [9]. Professor H.Boltaboyevning “XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligi masalalari keng tahlil qilingan holda, ishning 1-bobida A.Fitratning “Adabiyot qoidalari. Adabiyot muallimlari va havaslilari uchun darslik” (1926), “Aruz haqida” (1936) asarlari bilan qiyoslangan holda tahlil etilgan. Keyingi ishlarida ham olim ushbu manbaga bir necha marta murojaat qilgan, shuningdek, O‘zbekistonda adabiyot nazariyasi sohasining shakllanishida mazkur asarning o‘rni borligi ta’kidlangan [10]. B.Karimovning munaqqid Vadud Mahmudning adabiy-tanqidiy qarashlariga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi va uning asosida yaratilgan monografiyasida XX asr boshlari adabiy tanqidchiligida Vadud Mahmudning o‘rni ko‘rsatilishi bilan birga uning qarashlariga qiyosan A.Sa’diy asarlari ham tahlilga tortilgan [11, 12]. O.Hamroyeva A.Sa’diyning “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” kitobini nashrga tayyorlagan, unga so‘zboshi yozgan va joriy yozuvda e’lon qilgan [13].

Abdurahmon Sa’diy o‘zining “Amaliy va nazariy adabiyot darslari” darsligini yaratgunga qadar ilmiy maydonda o‘zining monografik asarlari, ilmiy maqolalari, taqrizlari bilan tanilib ulgurgan, bu borada ancha katta tajriba va salohiyatga ega bo‘lgan adabiyotshunos olim edi. “Qavoyidi adabiya va unga ilova”, “Ish tarbiyasi va ish maktabi”, “Adabiyot usullari”, “Adabiyot muallimi” kabilarni mazkur darslik yaratilishi uchun ilmiy-metodik asos bo‘lganini qayd etish lozim. Bundan tashqari, Abdurahmon Sa’diy 1948-yilning 17-dekabr kuni yozgan avtobiografiyasidagi “Universitetni bitirgach*, 1911-yildan fevral inqilobigacha turli uyezd va guberniyalarda (Rusiyaning Zlatoust uyezdida, Olmaotaning Aktyubinsk shahrida, Yekaterinburg va Ilgiz shaharlarida olti yillik tatar-boshqird va rus-tatar maktablarida tatar tili va adabiyotidan dars berdim” degan ma’lumotni ham inobatga olish lozim. A.Sa’diy pedagogik va yozuvchilik faoliyatining mazkur davrida uch qismdan iborat “Tatar tili grammatikasi”, “Adabiyot nazariyasi”, “Umumiy pedagogika”, “Pedagogika saboqlari”, “Boshlang‘ich va o‘rta maktablarda tatar tili va adabiyoti ta’limi” kitoblari tatar tilida chop etilgan. 1917-yilning kuzida uch yillik Bugulma tatar-boshqird kurslariga til va adabiyot o‘qituvchisi bo‘lib ishga kirib, mazkur shaharda 3 yillik o‘quv kurslari o‘qituvchilar seminariyasiga aylantirilganida ham, 1921-yilgacha til va adabiyot, pedagogika hamda adabiyot metodikasi fanidan o‘qituvchi, shu bilan birga ushbu seminariyaning rahbari bo‘lib ishlagan, 1921-yildan 1925-yilgacha Toshkent shahrida o‘zbek erkak va ayollar institutida, SAGU (hozirgi O‘zMU)ning ishchilar fakultetida va harbiy maktabda o‘zbek mumtoz adabiyotidan dars bergan. Qizg‘in ilmiy va pedagogik faoliyati davomida – 1921-yildan 1925-yilgacha – A.Sa’diy O‘zbekistondagi o‘zbek, qozoq, turkman gazeta va jurnallari (“Qizil bayroq”, “Turkiston”, “O‘zbekiston”, “Oq jo‘l”, “Bilim o‘chog‘i”, “Inqilob”, “Turkman eli”) bilan hamkorlikda ishlagan. Ularda muntazam ravishda adabiy-tanqidiy maqolalari, o‘zbek hamda qozoq adabiyoti bo‘yicha maxsus tadqiqotlari bosilib turgan. Munaqqidning adabiy tahlil borasidagi 20 dan ortiq, adabiyot tarixiga oid 30 dan ortiq, adabiyot nazariyasiga oid 30 dan ortiq, adabiy tanqid borasidagi 30 ga yaqin, pedagogikaga oid 30 ga yaqin, tilshunoslikka oid 10 dan ortiq asarlari va maqolalari darslikning ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan bo‘lishi uchun, olim tomonidan olib borilgan pedagogik faoliyat esa uning ilmiy-ommabop bo‘lishi uchun xizmat qildi. O‘qituvchilik faoliyatini olib borish davomida orttirilgan bilim va tajribalar A.Sa’diy uchun katta maktab vazifasini o‘tadi.

MATERIAL VA USULLAR

Maqolada qo‘yilgan muammo Abdurahmon Sa’diyning “Amaliy va nazariy adabiyot darslari” darsligi asosida tahlil qilingan.

Muammoni tadqiq etishda qiyosiy-tipologik tahlil usulidan foydalanilgan.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

1923-yilning fevral oyida O‘zbek bilim hay’ati adabiyotshunos olim Abdurahmon Sa’diy zimmasiga adabiyot nazariyasi bo‘yicha darslik yaratish majburiyatini yukladi. Hay’atning bunday muhim topshiriqni Abdurahmon Sa’diy zimmasiga yuklaganligi bejiz emas, albatta. Chunki Abdurahmon Sa’diy mazkur mas’uliyatli vazifa unga yuklatilgunga qadar o‘zbek adabiyotshunosligi rivojiga o‘zining munosib ulushini qo‘shgan, o‘z so‘zi va fikriga ega bo‘lgan adabiyotshunos sifatida shakllanib ulgurgan edi. Bu jarayonda:

* A.Sa’diy Istanbul davlat universitetining filologiya fakultetini tamomlagan.

- birinchidan, o‘zbek bilim hay’ati olim tomonidan aytilgan adabiyot ilmining ruhi va mantig‘i to‘g‘risidagi tushuntirishlarning darslikda berilishini zarur deb topmadi;

- ikkinchidan, muallif til va uslub masalalarini kitobning oltinchi bobida keltirib o‘tishni lozim topgan edi, biroq hay’at ushbu bobni darslikning boshlang‘ich qismida keltirishni maqbul topdi;

- uchinchidan, falsafiy qismlar bo‘yicha e’tirozlar inobatga olingani holda iloji boricha qisqaroq yo‘ldan borish tamoyili asos qilib olindi.

Darslikning “Kirish” qismida muallif “Adabiyot nimadir?” deb savol qo‘yadi va uning javobi uchun: “Adabiyot so‘zi arab tilidan olingan bir so‘z bo‘lib, “adab” moddasidandir. Adab so‘zi esa tarbiyalilik, noziklik, go‘zal qiliq, boshqalar bilan yaxshi, ko‘rkam munosabatda, yaxshi muomalada bo‘lmoq ma’nolarin ichiga oladir... Mana shu ma’nolari e’tibori ila “adab” so‘zin arablar “adabiyot” ravishida ko‘blik (jam’) qilib, hikoya, she’r, qissa va masallarga atama qilg‘andirlar”, deb ta’rif beradi [11. B. 18]. Bu ibtidoiy tushuntirish maktab o‘quvchilariga belgilangani uchun ko‘proq uning tarbiyaviy jihatiga e’tibor qaratilgan. Keyinroq barcha darsliklarimizdan o‘rin olgan adabiyotni “odobi kulliyot” tarzida talqin qilish nazariy jihatdan mana shu darslikdan boshlangan. “Adabiyot” so‘zining tor va keng ma’nolarini tushuntirib, bu tor ma’nosi bo‘lsa, u keng ma’noda “so‘zdan bir tilda bir tartibka solinib so‘ylangan yoki yozilgan hamma fikr va tushunchalarni tuyg‘u va xayollarni anglaymiz” deb davom etadi.

Darslik 7 bobdan iborat bo‘lib, uning dastlabki bobi “Til” deb nomlangan va “Tilning ahamiyati”, “Til ham ruhiy hollarimiz” kabi tushuntirishlar berilgan. “Tilda so‘zlarning qo‘llanilishi ham uslub masalalari” nomli 2-bobda tilning amalda qo‘llanilishi, anglatish ravishlari, o‘xshatish, kinoya va istiora kabi hodisalarga ta’rif berish bilan birga Cho‘lpon she’rlaridan va Qodiriy nasriy asarlaridan misollar keltirilgan. Muallif misollarni izohlamaydi, hatto ularning qaysi biri o‘xshatish yoki qay biri istiora ekanligini aytmasdan, yana Elbek, Fitrat, Botu, Sh.Sulaymon, A.Avloniy, Navoiy, Bobur, Muhammad Solih, Yassaviydan ketma-ket she’riy parchalar beradi, so‘ng o‘xshatish va istiora nima ekanligini anglatib, ularning farqli jihatlarini ko‘rsatgan. Bir qator badiiy san’atlarni o‘zbekcha nomlari bilan bergan, qavs ichida esa arab va rus tilidagi istilohlarni ham ma’nodosh sifatida keltirgan: sifatlar (epitet), turtma (ta’riz – ironiya), jonlantirish (tashxis va intoq – “olicetvorenie”), mubolag‘a (giperbola), qarshilantirish (tazod – “protivopolojeniye” yoki “ontariza”), takror, “so‘rog‘ berish”, nido (xitob), qaytish (ruju), kesish (qit’a), bilmaslikka solinish (tajohili orif). Ushbu ma’lumotdan muallif qaysi tamoyilga ko‘ra ish ko‘rganini anglash qiyin mumkin emas, u, avvalo, mumtoz she’riyatdagi mashhur usul – ma’noviy va lafziy san’atlarni farqlamaydi, so‘ngra ularning har biriga berilgan qisqa ta’riflardan so‘ng keltirilgan izoh va misollar yetarli darajada mohiyatni ochib berishga xizmat qilmagan. Darslik “amaliy darslar” qismini ham o‘z ichiga olgani uchun har bir bob so‘ngida “Ish” sarlavhasi bilan topshiriqlar va “Dokladlar uchun mavzular” berilgan.

Muallif yozuv va so‘zlashuv uslublarini farqlaydi, asosiy e’tiborni yozuv uslubi masalalariga qaratadi. Shuningdek, masalaga ijodiy yondashgan muallif anglash va so‘z uslublarini ham ajratib talqin qiladi. Uslubning xususiyatlari sifatida ochiqlik, sofsizlik, ko‘rinishlilik, hissiylik yoki hayajonlilik kabilarni ko‘rsatib, so‘z (ifoda) uslubiga to‘xtalarkan, uni ham ikki turini aytadi: sochma (nasr) va tizma (nazm). Ularning har biriga keng ta’rif berilmagan, faqat ko‘plab misollar orqali o‘quvchini mustaqil ishlashga yo‘naltirilgan. Misollar Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asaridan, “Alpomish” dostonidan, Yassaviy hikmatlaridan keltirilgan.

Shuningdek, A.Sa’diy qofiya haqida alohida bo‘lim doirasida so‘z yuritib, uni “Bitim” deb atagan. Qofiyaning mohiyatini ohang va vazn bilan aloqadorlikda tushungan.

Darslikning “Omma adabiyoti” deb nomlangan III bobida xalq og‘zaki ijodi, uning yozma adabiyotdan farqi masalalari yoritilgan: “chiqaruchi (ijodkor)ning ma’lum bo‘lmag‘anligi (1), butun ommaning adabiy kuchi qotishib ishlangan bo‘lishlari (2), butunlay ommachilik ruhi va omma zavqi bilan sug‘orilg‘anliqlari (3), adabiy ijod deb atalg‘an narsalarning eng sodda, eng boshlang‘ich oddiy bir ravishda ekanliklari (4), ko‘b zamonlar bo‘yincha ma’lum va qat’iy bir shakl olib, shu shaklda ma’lum bir an’ana, ma’lum bir chiziq hosil etib kelmaklari (5), xalqning o‘qish-yozish bilmagan, madaniyatda tuban bo‘lgan yoki oz madaniyatlik bo‘lg‘an choqlarida tug‘dirilgan bo‘lishlari (6), ko‘brak tizma uslubda yoki shuning ohangida hamda bitimli bo‘lmoqlari (7), tizmada vaznlar hijo sonida bo‘lmoqlig‘i (8)” [13. B. 67]. Muallif folklorga xos xususiyatlarni ko‘rsatish bilan birga ularni juda ibtidoiy ravishda talqin qilgan, tushuntirishda ilmiy uslub deyarli sezilmaydi. Shunga qaramay folklor asarlarining asosiy xususiyatlari: anonimlik, muallifi ma’lum emasligi, noprofessionallik, davriylik, she’riy asarlar esa barmoq vaznida bo‘lishi kabi jihatlar olim tomonidan qayd etilgan. Folklor asarlarining turlari sifatida maqol, jumboq (topishmoq), ashula, lapar, ertak (cho‘pchak), dostonlar ajratib ko‘rsatilgan. Ularning ayrimlariga qisqa namunalar berilgan.

“Kishilik ijodi ham uning turlari” deb nomlangan IV bobda ilmiy va ijodiy faoliyat haqida so‘z boradi va ibtidoiy shaklda “fikr ishchanligi va uning ikki yo‘li” tarzida tushuntirilgan. A.Sa’diy badiiy asarning obrazlar tizimi haqida ham so‘z yuritib, “obraz” istilohining o‘zbekcha varianti sifatida “ravishlar – suratlar”ni belgilagan va obraz turlari xususida so‘z yuritib, chiqilama suratlar (“образы схематичные”), birlashtirmak, umumiylashtirmak (“обобщение”) kabi obrazga xos jihatlarni ko‘rsatib o‘tgan. Olimning fikricha, obrazlar ikki turlicha bo‘ladi: “tiplik suratlar” (kishilar obrazlari) va “ramzlik suratlar” (“символические образы”). Olimning tushuntirishlarida mantiqli asos bor, shuning uchun ham u san’at, san’at turlari, go‘zal san’atlar haqida darslikning boshlanishida emas, balki obraz va obrazlilik tushuntirilgandan so‘ng ma’lumot beradi. San’at turlarini ularda qo‘llanadigan materiallari bo‘yicha farqlaydi: so‘zlar (so‘z san’ati), ovozlar va ohang (musiqa), bo‘yoqlar va chiziqlar (rassomlik), tosh, yog‘och, loy va g‘isht (me’morlik), marmar, bronza (“haykalchilik”), tana va mushak harakatlari (“tansa” – raqs). Go‘zal san’atlarni tasniflashda she’r yoki so‘z san’ati va musiqani “quloq san’atlari”, rassomlik, me’morlik va haykaltaroshlikni “ko‘rimli san’atlar” yoki “nafis shakl san’atlari” (“пластические искусство”) degan nom bilan anglatgan. Ushbu bob davomidagi “San’atda maktablar, oqimlar” mavzusida klassisizm, ratsionalizm (“fikrchilik”), sentimentalizm (“hissiylik”), romantizm, realizm (“chinlik oqimi”), simvolizm, naturalizm (“tabiiylik”), modernizm, futurizm oqimlari haqida ma’lumot berilgan. E’tiborlisi shundaki, muallif bu adabiy oqimlar uchun o‘zbek va tatar adabiyotidan misollar keltirgan. “Turkiy xalqlar adabiyotida shakl va uslub o‘zgarishlari” bo‘limida ijtimoiyat oqimi, unanizm (“turkumlanmak”), universalizm (“ko‘makchilik”) kabi oqimlarni ham yangitdan kiritgan.

Darslikning V bobida “She’riy ijodlarni turlarga ajratish” haqida so‘z boradi. Bu o‘rinda “she’riy ijod” birikmasi badiiy adabiyotni mazmunan qamrab ololmasa-da, rus tilidagi “poeziya” so‘zining tarjimasi o‘laroq keltirilgan: “She’riy ijodlarni ilgarida yurakchilik (lirika), ko‘chirik (epos), drama deb uchga bo‘lib kelar edilar. Lekin so‘nggi san’at va she’r olimlari ahvoli ruhiya yog‘idan qarab, she’riy ijodlarni: 1. Yurakchilik ijodi. 2. Ravishli yoki suratli ijod deb ikkiga bo‘ladilar. Ravishli ijod yana o‘zi ikkiga bo‘linadir:

1. Ko‘chirik (rivoya – tahkiya – epos),
2. Tomoshaliq yoki drama” [13. B. 120].

Demak, ko‘rinadiki, ushbu tasnif Aristotel tomonidan tavsiya etilgan badiiy adabiyotni epos, lirika va drama tarzida adabiy turlarga ajratishga zid kelmaydi, faqat muallif epik va dramatik asarlar tarkibidagi voqeabandlikni asos qilgan holda ularni bir ijod turining ikki ko‘rinishi sifatida belgilaydi. Muallif “ravishli” so‘zi orqali drama va eposga xos bo‘lgan, voqea-hodisalarni bayon qilish jihatini nazarda tutgan.

Darslikning salmoqli qismi she’riy asarlar tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, ularni muallif “yurak ijodi” deb atagan holda, “ko‘chirik” (epos) va dramadan farqli jihatlarini ko‘rsatgan. She’riy asarning vazn va qofiya jihati uning asosiy belgisi ekani aytilgan, she’rning ritmik xususiyatlari “maxsus ayrim bir impels – muharrik” deb ko‘rsatilgan. Lirika (“yurak she’rlari”)ning turlari sifatida “diniy yurakchilik”, “harbiy-vataniy yurakchilik”, inqilobiy she’rlar, qasida (oda), “sevgi yurakchiligi”, qayg‘u-motam, “kulgilik-hajviy”, “mutolaalik” yoki “fikrlik” she’rlar mavzuga ko‘ra farqlangan.

“Ko‘chirik” (epos) turlari sifatida “ideallashtirilgan ko‘chirik” va “chin ko‘chirik” (voqealashtirilgan) tarzida ikkiga ajratilib, uning birinchi bo‘lagi sifatida xalq qahramonlik ashulalari, doston (poema), ballada (g‘arbda), ertak va masal (maqol) keltiriladi. Bular asosan folklorga oid janrlar bo‘lib, yozma adabiyotga kam aloqador bo‘lsa-da, alohida sarlavha ostida “voqeiy ko‘chirik” turlaridan biri sifatida roman alohida sharhlanadi. Romanning mavzu-mundarijasi, obrazlar tizimi (tip) belgilanib, tiplar ruhiy tiplar, turmush tiplari, fikrlaguvchi tiplar va milliy tiplarga bo‘linadi. “Tomoshaliqlar” umumiy nomi ostida drama va dramaturgik janrlar tavsiflangan.

VI bobda “Shoirlarda ijod kuchlari va ijodga bog‘li bo‘lgan xususiyatlar” o‘rganilib, nafosat hissi, ilhom, dohiylik, ijodkor mehnati kabi ijod jarayoniga oid tushunchalar qalamga olingan. Bob yakunida “Shoirlar, hunarmandlar va tanqidchilar” sarlavhasi bilan ijod ahli tushuntirilgan, unga «she’riy asarlarni anglash” degan sarlavha bilan kichik ocherk ilova qilingan.

VII bobda muallif nasriy ijod va ularning turlari xususida to‘xtalgan, adabiy jarayonning nazariy va amaliy jihatlaridan kelib chiqib, jamoatchilik, tanqid kabi tushunchalarni sharhlagan. Bular, muallif nazarida, adabiy asar tahlilida ishtirok etuvchi subyektlardir. Ayni bobda tarixiy asarlarga alohida o‘rin ajratilib, voqeiynoma (“letopis”), qaydnoma, xotira, “o‘zimlik”, tarjimai hol, tabiatlama (“xarakteristika”), sayohatnoma, nutqlar haqida qisqa ma’lumotlar keltirilgan.

Darslik “amaliy darslar” deb atalgani bilan, asosan, nazariy ahamiyatga molikdir. Hatto tahlil joiz bo‘lgan mavzularda ham muallif misol keltirish bilan cheklanib, ko‘proq nazariy ma’lumot berish yo‘lidan borgan. “Nasriy o‘ylash”dagi usullar sifatida XX asr

boshlari falsafasiga oid ayrim tahlil usullari: butundan parchaga (deduksiya), parchadan butunga (induksiya), mushohada, natija, tahlil va tarkib usullari haqida tushunchalar berilgan. Darslik mo‘jazgina so‘ngso‘z bilan nihoyalangan. Bu jihatdan shuni ta’kidlash lozimki, darslik dastlab 1923-yilda chop etilgan bo‘lib, Maorif xalq komissarligi uni tasdiqlashdan avval bir qator o‘zgartirishlar kiritishni tavsiya qilgan. Mana shuni hisobga olib, 1924-yildagi 2-to‘ldirilgan nashri uchun muallif tomonidan “Boshlang‘ich” (so‘zboshi) va “So‘ngso‘z” yozilgan va ushbu nashrga ilova qilingan.

XULOSA

Adabiyot nazariyasini yaratishga bo‘lgan ilk urinishlar XX asr boshlariga kelib muvaffaqiyatli yakunlandi. Bu harakatlarning samarali natijasi o‘laroq A.Sa’diyning “Amaliy hamda nazariy adabiyot darslari” hamda Fitratning “Adabiyot qoidalari” asarlari yuzaga keldi. “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” o‘z davrida adabiyot nazariyasiga oid o‘zbek tilidagi birinchi darslik sifatida o‘zbek adabiyotshunosligida ushbu sohaning shakllanishiga xizmat qildi.

“Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” o‘zidan keyinroq yaratilgan Fitratning “Adabiyot qoidalari” darsligining tug‘ilishiga turtki bo‘ldi. Keyinchalik bu ikki darslik asosida Izzat Sultonning “Adabiyot nazariyasi” (1939) vujudga keldi. Garchi A.Sa’diy darslikni “mumkin bo‘lgancha marksizm asosiga, yangi turmush talablari negiziga qurishga tirishdik” degan bo‘lsa-da, u A.Veselovskiy va A.Potebnya singari marksizm bilan “chiqishmaydigan” nazariyotchilarga suyanishga harakat qildiki, bu asarning umri uzoqligini ta’minlashga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. *Султон И.* Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 408 б.
2. *Sulton I.* Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – 272 b.
3. *Каримов Н*. Адабиёт ва тарихий жараён. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2013. – 218 б;
4. *Назаров Б*. Ўзбек адабий танқидчилиги: ғоявийлик, метод, қаҳрамон. – Тошкент: Фан, 1983. – 283 б.
5. *Nazarov B., Rasulov A., Qahramonov Q., Ahmedova Sh*. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 432 b.
6. *Қосимов Б*. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2022. – 640 с.
7. *Хўжайберганов Н., Расулов А*. Ўзбек совет адабий танқидчилиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 168 б.
8. *Дўстқораев Б*. Ўзбек совет танқидчилиги тарихи. – Тошкент: ТошДУ, 1989. – 88 б.
9. *Болтабоев Ҳ*. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси: Филол. фанлари доктори ... дисс. – Тошкент, 1996. – 366 б.
10. *Boltaboyev H*. Fitratning adabiy-estetik qarashlari jadid adabiyotshunosligi kontekstida. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2024. – 404 b.
11. *Karimov B*. Jadid munaqqidi Vadud Mahmud. – Toshkent: Universitet, 1999. – 108 b.
12. *Sa’diy A*. Amaliy ham nazariy adabiyot darslari / Nashrga tayyorlovchi O.Hamroyeva. – Tashkent: Bookmany Print, 2025. – 180 b.

THE COMPOSITION ACADEMIC DIRECTION AND KEY PROBLEMS OF ABDURAHMON SAADIY'S TEXTBOOK

Nilufar A.Muminova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2026. 1(93). 76-82.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *human creativity, Forms and images, Prose, Poetry, Rhyme pattern, Popular literature, Realism.*

Professor Abdurahmon Saadiy's contribution to Uzbek literary studies is known through his scientific works, articles and reviews. In addition, he is devoted not only to literary studies, but also to the problems of literature teaching methods, linguistics, aesthetics, and art theory. The manual «Practical and Theoretical Literature Lessons» created in 1924 is scientifically invaluable and valuable as the first manual created before Abdurauf Fitrat's «Rules of Literature» created in 1926.

The structure of the work consists of 7 chapters, the first of which is called «Language», followed by explanations such as «The Importance of Language», «Language and Our Moods», and the second chapter, entitled «The Use of Words in Language and Issues of Style», not only describes the practical use of language, interpretation techniques, similes, irony and metaphor, but also provides examples from Chulpon's poems and Qodiriy's prose works.

Chapter 3 of the manual is entitled «Popular Literature» and it addresses the issues of folk oral creativity and its difference from written literature: the unknown originator (creator) (1), the fact that they are created by the combined literary efforts of the entire public (2), their complete imbued with the spirit of popular culture and popular taste (3), the fact that what is called literary creativity is in its simplest, most primitive form (4), They have taken a certain and fixed form over time, forming a certain tradition and a certain line in this form (5), they were created in times when the people were illiterate, low in culture or had little culture (6), The more the line is in the style or tone of the poem and the more the knowledge (7), the more the number of syllables in the line (8)". [Work, p. 67]

Chapter 4, entitled "Human Creativity and Its Types", describes scientific and creative activity, which is also explained in its original form as "the activity of thought and its two paths". A. Saadi also spoke about the system of images in a work of art, defining "ravişlar - suratlar" as the Uzbek version of the term "image" and speaking about the types of images, he distinguished between schematic images (obrazy schematichnye),

Chapter 4, entitled "Human Creativity and Its Types". describes scientific and creative activity, which is also explained in its original form as "the activity of thought and its two paths". A. Saadi also spoke about the system of images in a work of art, defining "ravişlar - suratlar" as the Uzbek version of the term "image" and speaking about the types of images, he distinguished between schematic images (obrazy schematichnye), He pointed out such features as unification, generalization (обобщение).

Chapter 5 of the manual discusses "Division of poetic works into types". Although the term "poetic works" does not cover fiction in its content, it is cited as a translation of the Russian word "poetry": "Poetic works used to be divided into three categories: lyrical, epic, and drama.

Chapter 6 examines "Creative Powers and Characteristics Related to Creativity in Poets" and discusses concepts related to the creative process: a sense of sophistication, inspiration, genius, and creative work. At the end of the chapter, under the heading "Poets, Craftsmen, and Critics", the creative community is explained, and a short essay is added under the heading "Understanding Poetic Works".

Chapter 7 discusses prose and its types, and based on the theoretical and practical aspects of the literary process, the author defines concepts such as society and criticism. These are, in the author's opinion, subjects participating in the analysis of a literary work. This chapter also allocates a special place to historical works, providing brief information on chronicles, notes, memoirs, autobiographies, biographies, characterizations, travelogues, and speeches.

"Practical and theoretical literature lessons" was a relatively first experiment written by Abdurrahman Saadi.

References:

1. Sulton, I. (1986) *Adabiyot nazariyasi* [Literary theory]. Tashkent: O‘qituvchi.
2. Sulton, I. (2005) *Adabiyot nazariyasi* [Literary theory]. Tashkent: O‘qituvchi.
3. Karimov, N. (2013) *Adabiyot va tarixiy jarayon* [Literature and historical process]. Tashkent: MUMTOZ SO‘Z.
4. Nazarov, B. (1983) *O‘zbek adabiy tanqidchiligi: g‘oyaviylik, metod, qahramon* [Uzbek literary criticism: ideology, method, hero]. Tashkent: Fan.
5. Nazarov, B., Rasulov, A., Qahramonov, Q., Ahmyedova, Sh. (2012) O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi [History of Uzbek literary criticism]. Tashkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
6. Qosimov, B. (2022) *Tanlangan asarlar* [Selected works]. Vol. 2. Tashkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
7. Khojaiberganov N., Rasulov, A. (1990) *O‘zbek sovet adabiy tanqidchiligi* [Uzbek Soviet literary criticism]. Tashkent: O‘qituvchi.
8. Dustkaraev, B. (1989) *O‘zbek sovet tanqidchiligi tarixi* [History of Uzbek Soviet Criticism]. Tashkent: TashDU.
9. Boltaboyev, H. (1996) XX asr boshlari o‘zbyek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy myerosi [Uzbek literary criticism of the early twentieth century and Fitrat’s scientific heritage]. The dissertation for Doctor of Philological Sciences.
10. Boltaboyev, H. (2024) *Fitrat adabiy-estetik qarashlari jadid adabiyotshunosligi kontekstida* [Fitrat’s literary and aesthetic views in the context of modern literary criticism]. Tashkent: MUMTOZ SO‘Z.
11. Karimov, B. (1999) *Jadid munaqqidi Vadud Mahmud* [New critic Vadud Mahmud]. Tashkent: Universitet.
12. Sa’diy, A. (2025) *Amaliy ham nazariy adabiyot darslari* [Practical and theoretical literature lessons]. Tashkent: Bookmany Print.

Muallif haqida ma’lumot:
MO‘MINOVA Nilufar Abduvahobovna – filologiya fanlari nomzodi. Andijon davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi. n.muminova241@gmail.com